

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**  
**AXBOROT XATI**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-yanvardagi 126-f-sonli Farmoyishining 1-ilovasiga muvofiq Toshkent davlat sharqshunoslik institutida 2017-yilning 12-13-oktabr kunlari **“O‘ZBEKISTON VA XORIJDA ZAMONAVIY HINDSHUNOSLIK: FILOLOGIYA, MADANIY-TARIXIY ALOQALAR MASALALARI”** mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

***Konferensiya quyidagi sho‘balarda ish yuritadi:***

1. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari
2. Madaniyatlararo muloqot va tarjima muammolari
3. Tarixiy aloqalar, tarixshunoslik va falsafa bo‘yicha tadqiqotlar
4. Matnshunoslik va manbashunoslik masalalari

***Konferensiya materiallari quyidagi mavzularni qamrab oladi:***

- ✓ Janubiy Osiyo mamlakatlari tilshunosligining dolzarb muammolari;
- ✓ Janubiy Osiyo tillarini qiyosiy-tipologik o‘rganishning bugungi kun muammolari (Janubiy Osiyo tillarini diaxron hamda sinxron aspekdagi o‘rganish masalalari);
- ✓ Janubiy Osiyo mamlakatlari adabiy jarayonlarida o‘zaro ta‘sir masalalari: qadim o‘rta asrlar va yangi davr (Janubiy Osiyo mamlakatlari adabiy aloqalarining bosqichlari va yangi qirralari);
- ✓ Hind adabiyoti durdonalarini o‘zbek tiliga, o‘zbek adabiyoti sara asarlarlarining hind tillariga tarjima masalalari;
- ✓ Janubiy Osiyo mamlakatlari madaniyati va san‘ati hamda ularning O‘zbekistonda o‘rganilishi;
- ✓ Hindistonda Boburiylar davri: til, adabiyot, tarix va madaniyat;
- ✓ Hindiston va O‘zbekiston madaniy aloqalari mustaqillik davrida;
- ✓ Hindiston va Markaziy Osiyo aloqalarining tarixiy ildizlari.

Konferensiya materiallari alohida to‘plamda chop etiladi. Shu munosabat bilan ilmiy maqolalar tashkiliy qo‘mitaga **2017-yilning 30-iyuniga** qadar taqdim etilishi lozim:

Maqolalar matni 7-10 bet hajmda elektron va bosma ravishda ikki nusxada jo‘natilishi lozim. Maqola matni Microsoft Word (Word 2000, XP yoki 2003) dasturida (Word-2007, 2010dan tashqari) Times New Roman (o‘zbek, rus yoki ingliz tilida), shrifti 14 kegel kattaligida; 1,5 intervalda, chapdan 30 mm, o‘ngdan 15 mm, yuqoridan va pastdan 25 mm joy qoldirilgan holatda rasmiylashtirilishi lozim; maqola mavzusi bosh harflarda ko‘rsatiladi, undan ikki qator pastda muallifning ismi-sharifi bosh harflari va familiyasi, ilmiy darajasi va unvoni, ish joyining to‘liq nomi ko‘rsatiladi, undan 2 interval tashlab matn keltiriladi. Matn bo‘yicha iqtiboslar maqolaning oxirida beriladi.

Matn ilmiy, texnik va stilistik tahrir qilingan bo‘lishi lozim.

Barcha talablarga javob bergan ilmiy maqolalar konferensiya materiallari to‘plamiga kiritiladi va nashr etiladi. Konferensiya materiallari to‘plami konferensiya o‘tkaziladigan kuni ishtirokchilarga tarqatiladi.

Maqolalar matniga taqriz berilmaydi va topshirilgan maqolalar qaytarilmaydi.

**Konferensiya materiallari to‘plami Hindiston elchixonasining homiyligida nashr etiladi. Mualliflardan konferensiyada ishtirok etish va maqola nashri uchun haq olinmaydi. Kelib-ketish va mehmonxona xarajatlari tashkiliy qo‘mita tomonidan qoplanmaydi.**

*Maqola matnini qo‘yidagi manzilga yetkazishingizni so‘raymiz:*

Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 25 uy. Janubiy Osiyo tillari kafedrası

Tel: 236-62-19, +998908057818, +998935774070;

E-mail: sirojiddin2003@yahoo.com, said\_lola@mail.ru